

JAHON ARMIYALARIDA XOTIN-QIZLARNING MAJBURIY HARBIY XIZMATNI O'TASHLARINING AYRIM JIHATLARI TO'G'RISIDA

Samatova Lola Yusupovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo hamda boshqa mintaqa davlatlari Qurolli Kuchlarida xotin-qizlarning majburiy va ixtiyoriy tarzdagi harbiy xizmatga chaqirilishi va harbiy xizmatni o'tashlari borasidagi o'xshash va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi. Ayollarning harbiy xizmatga chaqirilishining afzal va salbiy tomonlari ayrim davlatlar misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, harbiy ayollarning Vatan tinchligi va xavfsizligini ta'minlashdagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: gender masalasi, ayol harbiylar, majburiy harbiy xizmat, shartnoma asosidagi harbiy xizmat, Markaziy Osiyo, Yevropa, Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi va musulmon davlatlari Qurolli Kuchlari.

Саматова Лола Юсуповна,

Независимый исследователь Узбекского государственного университета
мировых языков

Аннотация: В статье рассматриваются сходства и различия в призыве и прохождении срочной и добровольной военной службы женщинами в Вооруженных Силах Республики Узбекистан, стран Центральной Азии и других регионов. На примере отдельных стран анализируются преимущества и недостатки призыва женщин на военную службу. Кроме того, раскрывается роль женщин военнослужащих в обеспечении мира и безопасности Отечества.

Ключевые слова: гендерные проблемы, женщины военнослужащие, срочная военная служба, военная служба по контракту, Вооружённые силы

стран Центральной Азии, Европы, Восточной Азии, Латинской Америки и мусульманских стран.

Samatova Lola Yusupovna,

Independent Researcher of Uzbekistan State World Languages University

Abstract: The article examines the similarities and differences in the conscription and compulsory and voluntary military service of women in the Armed Forces of Uzbekistan, Central Asian countries and other regions. The advantages and disadvantages of conscription of women into military service are analyzed using the example of individual countries. In addition, the role of female servicemen in ensuring peace and security of the Motherland is revealed.

Keywords: gender issues, female military personnel, conscript military service, contract military service, Armed Forces of Central Asian countries, Europe, East Asia, Latin America and Muslim countries.

Bugungi kunda gender tengligi masalasi kun tartibidagi dolzarb mavzulardan biri hisoblanib kelmoqda. Chunki jamiyatda “ayolning asosiy roli – bu oila va farzandlar tarbiyasidan iborat, ayolning o‘rni – uyda” singari tasavvur hamon mavjud. Biroq, bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamon xotin-qizlari nafaqat uyda o‘tirib, farzandlar tarbiyasi bilan band, balki siyosat, biznes, ilm-fan, madaniyat, sport va hatto harbiy sohada ham faol pozitsiyani egallab kelishmoqda. “Nozik xilqat” egalari davlat va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish idoralarida erkaklarga qaraganda intizomliroq va mas’uliyatliroq xodim sifatida o‘zlarini namoyon etib kelayotganligi hech kimga sir emas.

Asosan mard va jasur erkaklar “kasbi” sifatida ko‘riladigan harbiylik sohasi yuqori jismoniy chidamlilik va metin iroda bilan birga harbiy xizmatchilardan qat’iy tartib-intizom, itoatkorlik va qo‘yilgan vazifalarga nisbatan yuqori mas’uliyatni talab etadi. O‘zbek xotin-qizlarining bunday talablarga javob bera olishi va harbiy xizmatning “sharaflilikni” o‘zlarining nozik yelkalarida ko‘tara olishlari esa tarixda

o'zining shijoati va g'ayrati bilan qahramonlik ko'rsatgan To'maris, Qurbonjon Dodox singari yoxud Ikkinchi jahon urushida frontda va front ortida beqiyos jasorat va matonatni namoyon etgan mard va mohir sarkarda momolarimizdan meros [1, 50]. Ularning bugungi kun davomchilari va o'z davrining "qahramonlari" sifatida yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashdek mashaqqatli va sharaflı kasbni tanlagan, egnida turfa rang liboslar o'rniga harbiy libosni kiyishni afzal ko'rgan, Vatanni himoya qilish konstitutsiyaviy burchini ixtiyoriy ravishda bajarayotgan ayol harbiylarni e'tirof etish mumkin.

"O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida Nizom" [2]ga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmat o'tash erkaklar uchun majburiy hisoblanib, xotin-qizlar o'z xohish-istaklari bilan harbiy xizmatga chaqirilishi mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonunining 24-moddasida ayollar shartnoma asosida harbiy xizmatga qabul qilinishi mumkinligi belgilangan [3]. Jahonning ayrim davlatlari singari balog'atga yetgan qizning xonadoniga "armiyaga chaqiriq" xati yetib kelmasa ham, o'z taqdirini harbiy libos kiyish bilan bog'lashga va Vatanga qasamyodi bilan xizmat olib borishga shay qizlarimiz talaygina [4]. Buni yurtimizning har bir burchagida ko'chalarda xizmatga o'tlanayotgan harbiy libosdagi xotin-qizlarimizni ham ko'rganda amin bo'lasiz.

O'z navbatida, "qizlarga armiyada nima bor?"ga o'xshash savollarga javob tarzida shuni aytish mumkinki, xotin-qizlarning harbiy xizmatga chaqirilishining jamiyatda ma'lum ijobiy tomonlari bor. Armiyadagi tartib-intizom va tarbiyaviy tizim, muntazam harbiy tayyorgarlik orqali qizlarda vatanparvarlik tuyg'usi, itoatkorlik, mashaqqatlarga chidamlilik, mas'uliyat hissi oshadi, jismonan rivojlanadi hamda ruhan chiniqadi. Bu esa ularga kelajakda jismonan, ma'nan va ruhan sog'lom onalik va sog'lom turmush tarzini ta'minlab beradi, jamiyatda o'z o'rnini va maqomiga ega bo'lishga, zamonaviy tilda aytganda "karyera"sini yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, minglab harbiy ayollar shaxsiy hayotida va mehnat

faoliyatida muvozanatni saqlashga intiladi, ular mehnatsevarligi, zimmasidagi vazifaga vijdonan yondashuvi va intizomi bilan ajralib turadi [5, 20-23].

Har yerda bor toshu tarozi, deganlaridek boshqa yurtlarning Qurolli Kuchlarida ayollarga nisbatan “zarurat” yoxud “ehtiyoj” qanaqa? Qo‘shni davlatlardan **Qozog‘istonni** olsak, mamlakatning 2012-yil 16-fevraldagi “Harbiy xizmat va harbiy xizmatchilarning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, harbiy majburiyat faqat erkaklarga yuklatilgan bo‘lib, xotin-qizlar **ko‘ngilli tarzda o‘z xohishlariga ko‘ra harbiy xizmatni o‘tashlari mumkin.**

Qozog‘iston hukumatining ma‘lum etishicha, yaqin kelajakda mamlakatda tajriba sifatida barcha yoshlar (qizlar uchun ham) uchun harbiy tayyorgarlikni joriy etish rejashtirilmoqda. Zero, xotin-qizlar – bu katta miqdordagi resurs bo‘lib, ularni mamlakat mudofaasiga jalb etish esa davlat manfaatlariga javob beruvchi omil bo‘lishi mumkin.

Qozog‘iston Respublikasining sobiq mudofaa vaziri general-polkovnik Ruslan Jaksilikovning (19 yanvar 2022 y. – 8 iyun 2025 yy.) so‘zlariga ko‘ra, joriy yilda mamlakat Qurolli Kuchlarida 12 mingdan ziyod ayol harbiy xizmatchilar shartnoma asosida xizmat olib bormoqda. Ularning 800 ga yaqini ofitserlar, 6 mingdan ortig‘i shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilar va 5 ming nafari fuqaro xizmatchilar. Shunda 25 nafar ayol harbiy xizmatchilar “polkovnik”, 11 nafari rahbarlik lavozimlarni (mudofaa vaziri o‘rinbosari, vazirning ikki nafar ayol maslahatchilari, mudofaa vazirligi boshqarmasi boshqarma boshliqlari va boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari, mudofaa ishlari bo‘yicha boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari, harbiy gospital, baza, markaz va kasalxona boshlig‘ining o‘rinbosari) egallashsa, yana 55 nafari davlat mukofotlariga sazovor bo‘lishgan [6]. Shuningdek, general-polkovnik R.Jaksilikov o‘z nutqlaridan birida “Armiyada jinsiga ko‘ra ajratish va “qiz bola” degan ta‘rif yo‘q. Armiyada faqat harbiy xizmatchi ayollar bor bo‘lib, ularning funksional vazifalari erkak harbiylarniki bilan bir xil. Ular orasida dengizchilar, desantchilar, razvedkachilar, merganlar, mexanik-haydovchilar bor” degan ekan. Hattoki, 2023-yilda BMTning tinchlikparvar operatsiyalarida asosan

harbiy tibbiyot, tarjimonlik va texnik mutaxassisliklarida qozoq ayol harbiylari ishtirok etgan.

Joriy yilning 16-iyul kuni Qozog‘iston prezidenti Qosim-Jomart Toqayev tomonidan “Harbiy-vatanparvarlik tarbiya, harbiy xizmat va ayrim davlat idoralari vazifalarini taqsimlash masalalari bo‘yicha” ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritildi. Unga ko‘ra, mamlakatda armiyaga chaqiriq xabarlarini endilikda uyali aloqa telefonidagi SMS xabar yoki “eGov” portali orqali kamida uch kun oldin yetkaziladi. Bunda chaqiriluvchi uch kundan so‘ng hududidagi mudofaa ishlari bo‘limiga (voyenkomatga) kelib, tibbiy ko‘rikdan o‘tishi, komissiya yig‘ilishida ishtirok etishi yoki harbiy qismga yuborilishi kerak. Muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lganlar esa ikki yil davomida oliy ta‘lim muassasasiga yoki ta‘limning magistratura bosqichiga imtihonlarsiz – faqat pullik asosida o‘qishga kirishlari mumkin [7].

Qirg‘izistonda ham xotin-qizlar harbiy xizmatni o‘tashi majburiy emas va ular o‘z xohish istaklari bilan 19 dan 40 yoshgacha oraliqda xizmatga o‘tlanishi mumkin. Mamlakat Konstitutsiyasi (Qirg‘iziston Respublikasining 2021-yil 5-maydagi Qonuni bilan kuchga kirgan) ayollarga erkaklarniki bilan bir xil huquqni kafolatlasa ham, ammo amalda esa armiyada ayollarning kamsitilish holatlari hamon uchramoqda.

Misol uchun, Qirg‘iziston deputatlaridan birining ta‘kidlashicha, vataniga xizmat qilish istagidagi ko‘pgina ayollarni harbiy xizmatga qabul qilishmaydi. Sababi ularning armiyada bo‘lishlari ayrim noqulayliklarni (asosan moliyaviy) keltirib chiqaradi. Masalan, harbiy qismlarda ayollar kazarmasini yoki boshqa sharoitlarni yaratib berishga va bunga anchagina moliyaviy xarajatlarni qaratishga to‘g‘ri keladi. Shunga qaramay, ojizalar “kuchli jins” vakillariga qaraganda yanada yaxshi xizmat qilishlar mumkinligiga deputat ishonch bildirdi.

Aytish mumkinki, Qirg‘iziston armiyasining “Skorpion” va “Ilbirs”, Ichki Ishlar vazirligining “Sher” maxsus vazifani bajaruvchi brigadalarida ayol harbiylari avtomatdan otishadi, yugurishadi, jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlaridan o‘tishadi. Qirg‘iz ayollari hattoki 1999-yilgi Botken voqealarida ham ishtirok etishgan [8].

Qirg'iz tarixida Qurolli Kuchlar safida xizmat qilgan ayollar bo'yicha misollar ham bor. Misol uchun, Qirg'izistonning yagona ayol uchuvchisi Ye.Pasko bo'lib, Sovet Ittifoqining Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan.

Turkmanistonda ayollar harbiy islohotlarga o'z hissasini qo'shgan holda harbiy xizmatni o'tashlari mumkin. Turkman ayol harbiy xizmatchilari soni haqidagi ma'lumotlar ochiq manbalarda mavjud bo'lmasa ham, biroq ayol harbiylari Turkmanistonning "Harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni doirasida xizmat qilishlari, ular uchun xizmat o'tashning yoshi 47 yosh, harbiy idoralarda fuqaro lavozimlarni egallaganlar uchun esa 57 yosh etib qonun bilan belgilanganligi ma'lum.

Shuningdek, Turkmaniston Mudofaa vazirligining harbiy institutiga ayol kursantlar ham qabul qilinib, nomzodlarning 21 yoshgacha, o'rta ma'lumotli va harbiy xizmatni o'tashga qiziqishi bo'lishi talab etiladi. Kelajakda harbiy xizmatchi ayollarning harbiy paradlar ishtirokchilari ham bo'lishi mumkinligi kafolatlangan [9].

Mintaqamizdan olis hududlarni nazar tashlasak, so'nggi yillarda Yevropaning bir qator davlatlari xotin-qizlarni majburiy harbiy xizmatga chaqirish orqali o'z armiyasini butlashga kirishgan. Bunday holat esa rivojlangan mamlakatlarda ijobiy natijalarni ko'rsatib, xavfsizlikni ta'minlash uchun qo'shimcha resurs sifatida ko'rilmogda. Bundan tashqari, bu gender tenglikni qo'llab-quvvatlash usullaridan biri sifatida ham ko'rib chiqilmogda.

Jumladan, **Norvegiyada** ayollar 1976-yildan o'z istaklari bilan harbiy xizmatga chaqirilgan bo'lishsa, 2014-yil 14-oktabrdan erkak va ayollar uchun majburiy harbiy xizmatni (gender-neytral harbiy majburiyatni) joriy etgan ilk Yevropa davlatiga aylangan. Bunda 19 dan 44 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar 19 oylik harbiy xizmatni o'tashlari majbur etib belgilangan. 2014-yilda Afg'onistondagi urush yillari davrida Norvegiya maxsus operatsiya kuchlari tarkibida 300 kishilik "Jegertroppen" nomli maxsus vazifani bajaruvchi ayollar bo'linmasi tuzilgan edi.

2024-yil holatiga ko'ra, qirolikda ayol harbiy xizmatchilar ulushi 15 % ni tashkil etadi va ular erkaklar bilan bir safda hech qanday cheklovlarsiz istalgan lavozimni egallash imkoniyatiga ega.

Shvetsiyada ayollarning harbiy xizmatga qabul qilinishiga 1980-yilda ruxsat berilgan bo'lsa, jinsidan qat'iy nazar majburiy chaqiriq (gender-neytral harbiy majburiyat) 2017-yilda joriy etilgan va ayollarning erkaklar bilan teng lavozimlarda xizmat o'tashlari qonun bilan belgilangan. 18 dan 25 yoshgacha (Harbiy havo kuchlarida 23 yoshgacha) ayollar uchun harbiy xizmat muddati yakka tartibda belgilanib, 7 dan 15 oygacha tashkil etadi. Shvesiya Qurolli Kuchlarining 20 % ga yaqini ayol harbiy xizmatchilari bo'lib, mamlakatda harbiy holat e'lon qilinganida 70 yoshgacha bo'lgan barcha shved ayollari harbiy xizmatga chaqirilishi mumkin [10].

Gender-neytral harbiy majburiyatni joriy etgan yana bir Skandinaviya davlati bu – **Daniya**. Daniya parlamentining 2025-yil 25-martda qabul qilgan qonuniga muvofiq, joriy yilning 1-iyul kunidan boshlab 18 yoshga to'lgan barcha xotin-qizlar harbiy xizmat o'tashga oid tegishli chaqiriq xabarini olishlari mumkin. 2026-yil 1-yanvardan boshlab esa ular qur'a tashlash yo'li orqali Qurolli Kuchlar safiga chaqirilishadi. Mamlakatda majburiy harbiy xizmat muddati 4-12 oygacha tashkil etadi. Daniya Qurolli Kuchlari ma'lumotlariga ko'ra, hozirda barcha yangi ko'ngilli chaqiriluvchilarning 25 % ni xotin-qizlar tashkil etadi va o'z armiyasini yanada mustahkamlash maqsadida 2027-yilga qadar chaqiriluvchilar sonini 4,7 mingdan 6,5 minggacha ko'paytirish rejalashtirilmoqda. Aytish kerakki, shu vaqtgacha daniyalik ayollar uchun harbiy xizmat majburiy emas edi [11].

Niderlandiyada esa Qurolli Kuchlar safida xizmat qilish shartnoma asosida bo'lib, harbiy majburiyat ayollarga ham tegishli (garchi ushbu majburiyat 1997-yildan to'xtatilgan bo'lsa ham).

Finlyandiyalik ayollar 1995-yilda ko'ngilli bo'lib harbiy xizmatni o'tash huquqini qo'lga kiritishgan bo'lib, ularning chaqiriq yoshi 18 dan 29 yoshgacha etib

belgilangan. Ayollarga barcha jangovar bo'linmalarda, jumladan quruqlikdagi qo'shinlar va maxsus vazifa bajaruvchi kuchlarda xizmat o'tashga ruxsat berilgan.

Uzoq yillardan buyon xotin-qizlari qo'liga qurol olib, erkaklar bilan yelkama-yelka saf tortayotgan mamlakatdan biri **Isroil**ni keltirib o'tish mumkin. Chunki bu yerda ayollar uchun majburiy harbiy xizmat 1949-yildan amal qilib kelinmoqda. Harbiy xizmat muddati – ayollar uchun 2 yil, erkaklar uchun – 3 yil. Ilgari bunday majburiyatdan ozod etilgan ultra ortodoks yahudiylar ham joriy yilning iyun oyidan boshlab Isroil Oliy sudining qarori bilan armiyaga majburiy chaqiruvga jalb etiladigan bo'lishdi [12].

Bugungi kunda isroillik ayol fuqarolari mamlakat armiyasi chaqiriluvchilarining deyarli 30 % ni, harbiy xizmatchi ayollar esa mamlakat Qurolli Kuchlarining 49 % ni tashkil etadi. Isroil armiyasining rasmiy saytida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2 yil harbiy xizmatni o'tagan ayollar quruqlikdagi, harbiy-dengiz va harbiy havo kuchlaridagi lavozimlarga tayinlanishlari mumkin. Isroilning 90% dan ortiq harbiy bo'linmalariga ayollar xizmatga qabul qilinadilar va ular jangovar hamda jangovar bo'lmagan vazifalarni bajarishadi [12].

Xotin-qizlari harbiy xizmatga majbur bo'lgan ko'pgina davlatlar **Afrikada** ham kuzatiladi – Chad, Gvineya-Bisau, Mali, Mozambik, Eritreya, Kabo-Verde va Nigerda majburiy harbiy xizmatni o'tash muddati 16 oydan iborat. Mozambikda esa bu muddat 2024-yilda 2 yildan 5 yilgacha uzaytirildi.

Osiyo qit'asida erkaklar va ayollar uchun umumiy harbiy majburiyat Myanma, Xitoy, Sharqiy Timor va Shimoliy Koreyada joriy etilgan. Dunyodagi eng katta armiyalaridan biri hisoblanadigan **Koreya Xalq Demokratik Respublikasi** Qurolli Kuchlari soni 1,3-1,5 mln. kishini tashkil etsa, uning 40 % ayollardan iborat. 2015-yildan buyon xotin-qizlar yigitlarga o'xshab 17 yoshdan harbiy xizmatga chaqirilib, harbiy xizmat muddati ularning ma'lumot darajasidan kelib chiqqan holda 5 yilgacha davom etishi va 23 yoshgacha xizmat o'tashlari mumkin. Ammo majburiy harbiy xizmatdan Janubiy Koreyaga qochib ketgan ayrim ayollarning so'zlariga

ko'ra, harbiy xizmatchilar o'rtasida jinsiga qarab harbiy majburiyatlar taqsimlanmay, aksincha erkaklar va ayollar harbiy vazifalarni bir xil bajarishadi [13].

Sharqiy Timorda 18 dan 30 yoshgacha erkak va ayollarning majburiy harbiy xizmat o'tashlari to'g'risidagi qaror 2020-yilda qabul qilingan va xizmat davomiyligi 18 oyni tashkil etadi [13].

Xitoyda esa o'rta maktabni tugatib, **ma'lum harbiy mutaxassisliklardan biri** talablariga javob beradigan 18-19 yoshli qizlar majburiy harbiy xizmatga chaqirilishadi.

Musulmon davlatlari orasida ko'pgina harbiy xizmatchi xotin-qizlarni **Pokiston Islom Respublikasida** uchratish mumkin. Pokistonda majburiy harbiy xizmat yo'q bo'lib, 18 dan 30 yoshgacha bo'lgan pokistonlik qizlar ko'ngilli tarzda 9 oygacha harbiy xizmatni o'tashlari mumkin. Ma'lumot o'rnida qo'shish mumkinki, mamlakat ayol harbiy xizmatchilari BMTning tinchlik missiyalarida hamda mashg'ulotlarida faol ishtirok etishadi. Pokiston Harbiy havo kuchlarida ilk uchuvchi ayollar 2006-yilda kuzatilgan bo'lsa, ularning mamlakat Harbiy dengiz kuchlarida jangovar vazifalarni bajarishlari taqiqlangan. Tarixga nazar tashlansa, Pokiston armiyasida xotin-qizlar 1940-yillar oxirlarida mamlakat mustaqilligi yo'lidagi kurashda muhim rol o'ynagan edilar.

Pokistondan tashqari, ayollar **Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Bahrayn, Quvayt va Saudiya Arabistoni** armiyalarida ham harbiy xizmat o'tamoqdalar.

Bugungi kunda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida xotin-qizlar uchun harbiy xizmat hamon ko'ngilli bo'lib qolmoqda. Misol uchun, AQShda garchi 1948-yildan boshlab amerikalik xotin-qizlar uchun harbiy xizmatchi bo'lishga qonunan ruxsat berilgan bo'lsa ham, harbiy akademiyalarda ilk ayollar 1970-yillarda paydo bo'lishgan va bugungi kunga qadar ular jangovar vazifalarda ishtirok etib kelishmoqda. Hozirda **AQSh armiyasida** 200 mingdan ortiq harbiy xizmatchi ayollar (shaxsiy tarkibning 14-15 % ni tashkil etadi) bo'lib, 1993-yildan buyon jangovar harbiy qismlarda xizmatni o'tab kelishmoqda. Shu muddat ichida Pentagon tomonidan ayollar uchun turli harbiy yo'nalishlar, jumladan quruqlikdagi qo'shinlar,

harbiy havo kuchlari va suv osti kemalaridagi xizmat ochib berilgan. Lekin eng qizig'i, amerikalik ayollar harbiy xizmatni aviatsiyada o'tashni afzal ko'rishadi, mamlakatning harbiy havo kuchlarida 21 % ofitserlarni ayollar tashkil etadi va ular hech qanday cheklovlarsiz erkaklar bilan bir xil jangovar vazifalarni bajarishadi [12].

Bundan tashqari, Yevropa, Osiyo va Lotin Amerikasining bir qator davlatlarida, jumladan, **Buyuk Britaniya, Bolgariya, Belgiya, Vengriya, Latviya, Litva, Ispaniya, Slovakiya, Sloveniya, Xorvatiya, Albaniya, Fransiya, Polsha, Gretsiya, Turkiya, Chexiya, Portugaliya, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Avstraliya, Boliviya, Kuba va Kanadada** xotin-qizlar o'z xohish-istaklariga ko'ra armiyada "karyera"sini olib borishi mumkin [10].

Bugungi kunda ikkita kurashuvchi davlatlar – **Rossiya va Ukrainada ham xotin-qizlar uchun majburiy harbiy xizmat yo'q.** Ammo ularning ko'pgina ayollari o'z yelkalarida harbiy pogonlarni taqishga ulgurib ham bo'lishgan.

Ukraina Mudofaa vazirligining bergan ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda Ukraina armiyasida 900 ming nafar erkaklar va 68 ming nafar xotin-qizlar xizmat qilmoqda, bu esa ayollarning soni 2021-yilga qaraganda 40 % ga oshganligini ko'rsatadi. Ilgari ukrainalik ayollar asosan tibbiyot, aloqachi, hisobchi, ish yurituvchi va oshpaz lavozimlarda xizmat olib borishgan bo'lsa, hozirgi vaqtda esa – ular haydovchi, granatomyotchik, razvedka guruhi komandirlarining o'rinbosarlari, BMP komandirlari, pulemyotchik va merganlar. Ukrainada 2023-yil oktabrda qabul qilingan qonunga ko'ra, 18 dan 60 yoshgacha bo'lgan, tibbiy yoki farmatsevtik ma'lumotga ega hamda harbiy kafedrani o'qib tugatgan barcha xotin-qizlar o'z xohish-istagi va ish tajribasiga qaramay harbiy hisobda turishlari shart. Shuningdek, ushbu talab sog'liqni saqlash tizimi bo'linmalari rahbarlari va ilmiy xodimlariga ham tegishli. Ukrainalik ayollar safarbarligini nazorat qiluvchi "Harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuniga (1992 yil 25 mart kuni qabul qilingan) muvofiq, harbiy hisobda turishiga qaramay, ayollarni ularning rozilgisiz armiyaga chaqirish mumkin emas.

Bundan tashqari, mamlakatda 2025-yil fevral oyidan “Kontrakt 18-24” loyihasi boshlangan bo‘lib, bu 18-24 yoshlardagi ukrainalik qizlarning ko‘ngilli tarzda bir yil muddatga mudofaa kuchlariga qo‘shilish tashabbusini namoyon etadi hamda ushbu loyiha ayollarning bir yil davomida jangovar tajribani qo‘lga kiritish va moliyaviy barqarorlikka erishish imkoniyatini beradi. Mazkur loyiha avvalida Ukraina armiyasiga xizmatga borgan ilk ayol 21 yoshli Veronika ismli qiz bo‘lib, u tibbiy ma‘lumotga ega va 72-alohida mezanizatsiya brigadasi harbiy xizmatchisi hisoblanadi. Uning so‘zlariga ko‘ra, harbiy xizmat davomida uning uchun eng og‘iri bu jismoniy tayyorgarlik hisoblanadi [14].

Rossiya armiyasida rus qizlari harbiy xizmatga chaqirilmaydi va bo‘sh ish o‘rinlari mavjud bo‘lganida o‘z xohishlari bilan shartnoma asosida qabul qilinishi mumkin. Sobiq mudofaa vaziri armiya generali Sergey Shoyguning (2012-yil 6-noyabr – 2024-yil 12-may) 2024 yil mart oyida taqdim etgan ma‘lumotlariga ko‘ra, Qurolli Kuchlaridagi ayol harbiy xizmatchilari soni 37 500 nafarni tashkil etgan. 2024-yil oktabr oyida esa Rossiya-Ukraina urushi davomida uchuvchisiz uchish apparatlari ayol operatorlarining “Tungi jodugarlar 2.0” nomli birinchi ko‘ngilli jangovar bo‘linmasi tuzilgan (*ushbu nom Ikkinchi jahon urushi davridagi shu nomdagi mashhur sovet ayollar polkidan kelib chiqib qo‘yilgan*) [15].

Bundan tashqari, Rossiyaning Ryazansk desant o‘quv yurtida maxsus ayol batalyonlari ham mavjud bo‘lib, bu yerda ofitser ayollar tayyorlanadi.

Tarixda bo‘lib o‘tgan urushlardan so‘ng **Yaponiya** armiyasiga xotin-qizlarni hamshira sifatida qabul qilish jarayonlari boshlangan. 1967-yildan ayollarga quruqlikdagi qo‘shinlarning aloqa bo‘linmalarida va harbiy dengiz kuchlarida, 1974-yildan buyon esa Harbiy havo kuchlarida xizmat qilishga ruxsat berilgan. 1991-yilga kelib Yaponiya armiyasida 6 mingdan ortiq ayollar xizmat o‘tagan. Mudofaa kuchlari katta leytenant Misa Masusima 2018-yil avgustida F-15 qiruvchi samolyot uchuvchisi bo‘yicha malaka oshirgan ilk ayol hisoblangan. 2022-yilda Yaponiyada harbiy xizmatchi xotin-qizlarning umumiy soni 247 ming kishini (umumiy qurolli kuchlarning 13 %) tashkil etgan [12].

Xulosa qilib aytish mumkinki, har bir davlatda ayol jinsidagi fuqarolarni harbiy xizmatga jalb etishning o'ziga xos sabablari va omillari mavjud. Ayrimlarida xotin-qizlarni xavfsizlikni ta'minlash maqsadida asosiy resurs sifatida majburiy harbiy xizmatga jalb etish jarayoni faol kechsa, boshqalarida (asosan musulmon davlatlarida) milliy madaniy va tarixiy an'analarga ko'ra bu holat nazarda tutilmagan.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi xotin-qizlarning salomatligini muhofaza qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu borada ko'plab farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Mehnat [16] va Oila [17] kodekslarida hamda Konstitutsiyamizda [18] ham xotin-qizlarning barcha sohalarda erkaklar bilan teng huquqli ekani belgilangan.

Demak, bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida ixtiyoriy ravishda erkaklar bilan bir qatorda fidokorona xizmat qilayotgan ayol harbiylar oila va burch tushunchalari muvozanatini saqlagan holda Vatan tinchligi va xavfsizligini ta'minlashga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shish bilan birgalikda, o'sib kelayotgan yosh avlodga o'rnak va namuna ham bo'lib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samarov R.S. Jamiyat va Qurolli Kuchlar feminizatsiyalashuvi. Monografiya. – T., 2008. – 258 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi PQ-4447-son qarori // 12.09.2019 / <https://lex.uz/docs/4513434>.
3. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni // 12.12.2002 / <https://lex.uz/docs/78717>.
4. Choriyev Z. Vatanparvar ayollar // Vatanparvar gazetasi, 1999 yil, 25 may.

5. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida ayol harbiy xizmatchilarning maqomi, o'rni va roli. Mualliflari A.Po'latov va U.Pirmuhamedova. // Demokratlashtirish va inson huquqlari jurnali. – 2002. №2.
6. www.sarbaz.kz
7. www.gov.kz (Qozog'iston Mudofaa vazirligi rasmiy sayti)
8. www.mil.gov.kg/ru (Qirg'iziston Mudofaa vazirligi rasmiy sayti)
9. www.news-asia.ru
10. Бухарова А.С. Гуманно или нет служить женщинам в Вооруженных Силах? // Гуманизация воинской деятельности реформа ВС // Материалы международной конференции. – Москва.: ГА ВС, 1994.
11. Женщина в мифах и легендах / Энциклопедический словарь. – Тошкент, 1992.
12. Ващурина З.П. Женщины и армия // Журнал «Власть». – 2001. №4.
13. www.zavtra.ru/books
14. www.dw.com
15. www.mil.ru (Rossiya Mudofaa vazirligi rasmiy sayti)
16. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 6-modda // 01.04.1996 / <https://www.lex.uz/docs/142859>
17. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. 2-modda // 01.09.1998 / <https://lex.uz/docs/104720>
18. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 58-modda // 01.05.2025 / <https://lex.uz/docs/6445145>